

“TASDIQLAYMAN”

Farg‘ona viloyati

statistika boshqarmasi boshlig‘i



Sh. R. Mamadaliyev

2025-yil “ 19 ” may

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi

Narxlар statistikasi bo‘limi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Narxlар statistikasi bo‘limi (keyingi o‘rinlarda Bo‘lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24- fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qaroriga va u bilan tasdiqlangan Statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tashkil etilgan va Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi.

3. Bo‘lim O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, Statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo‘lim Narxlар statistikasi masalalari bo‘yicha faoliyatini Statistika qo‘mitasi Narxlар statistikasi boshqarmasi, bevosita boshqarma bo‘limlari va tuman (shahar)lar statistika bo‘limlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqarma boshlig‘i rahbarligida amalga oshiradi, bir vaqtning o‘zida uning faoliyati Statistika qo‘mitasi Narxlар statistikasi boshqarmasi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Bo‘lim o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha boshqarma boshlig‘i o‘rnbosariga bo‘ysunadi.

2-bob. Bo‘limning vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) *rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo‘yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyotlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo‘lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika boshqarmasining ish rejalarini o‘z vaqtida shakllantirilishida ishtirot etish;

Farg‘ona viloyati statistika tizimini rivojlantirishning maqsadli dasturlarini, Statistika agentligi qaror, buyruq va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta’minlash yuzasidan joriy va istiqbol rejalarini tayyorlashda ishtirot etish;

Narxlar statistikasi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarning talablarini o‘rgangan holda istiqbolli maqsadlar va yo‘nalishlar bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlarni joriy etib borish;

ishlab chiqiladigan me’yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar ishlab chiqishda Bo‘lim vakolati doirasida ishtirot etish;

makroiqtisodiy, tarmoq va tuman (shahar)lar darajalarda o‘rganilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning qamrovini kengaytirishga qaratilgan Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishslashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo‘li bilan statistik kuzatuvlar tizimini umum qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirib borish;

Narxlar statistikasi bo‘yicha tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchlilagini bosqichma-bosqich oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish;

Narxlar statistikasi statistikasi uslubiyati, statistik ishlarni tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha boshqarma bo'linmalariga, tuman (shahar)lar statistika bo'limlariga yordam ko'rsatish;

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, metodologik ishlar reja-jadvalining Narxlar statistikasi qismi bo'yicha bajarilishini ta'minlash;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

Narxlar statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ish va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

Narxlar statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning hisob-kitobini amalga oshirish hamda dastlabki statistik tahlilini olib borish;

Narxlar statistikasi bo'yicha axborot-statistik ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borish, foydalanuvchilarga ulardan foydalanishga doir tushuntirishlar berish;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslik, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarini himoya qilinishini ta'minlash;

hududiy statistika organlarining Narxlar statistikasi bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil qilish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash bo'yicha choralarini amalga oshirish borasidagi faoliyati monitoringini yuritish;

umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq, Narxlar statistikasi bo'yicha statistik metama'lumotlar tizimini yaratish va uni doimiy rivojlantirib borish;

tavsiya etilgan xalqaro standartlar asosida Xizmatlar va savdo sohasi statistikasida sifatni boshqarish tizimini joriy etish va rivojlantirish;

v) *xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligni oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:*

Narxlar statistikasi bo'yicha tezkor va sifatli statistik ma'lumotlar tayyorlanishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun Xizmatlar va savdo sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar,grafiklar va press-relizlar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Statistika agenligi tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar hamda boshqarma tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar ijrosi yuzasidan Bo'lim vakolati doirasida yillik va choraklik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlashda ishtirop etish;

Narxlar statistikasi bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlarni statistika organlari, boshqa davlat organlari nashrlarida joylashtirish uchun va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlar yaratilishini ta'minlash;

viloyat statistik to'plamlarda chop etish uchun viloyat miqyosida Xizmatlar va savdo sohasini rivojlanishi to'g'risidagi axborotlarni tayyorlash;

Narxlar statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirop etish;

g) *statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:*

Narxlar statistikasiga oid ko'rsatkichlarni boshqarmaning axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini joriy etishda ishtirop etish;

Narxlar statistikasi amaliyotiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini joriy etishda ishtirok etish;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, Xizmatlar va savdo sohasi bo'yicha asosiy statistik ko'rsatkichlarning takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasinining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlash;

Narxlar statistikasi bo'yicha axborotlardan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida ko'rsatkichlarning kengaytirilgan ro'yxatidan erkin foydalanish imkonini beruvchi statistik ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishda va yuritishda ishtirok etish.

7. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Statistika ishlari dasturi va Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturining Narxlar statistikasi bo'yicha bajarilishini ta'minlaydi;

Narxlar statistikasi istiqbolli rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, Statistika ishlari dasturining mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish, uning mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, tarkibiy va bozor islohotlari, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida islohotlarning borishini tavsiflovchi tegishli maqsadli ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ishtirok etadi;

Narxlar statistikasi kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, statistik hisobot shakllaridagi bir-birini takrorlovchi ko'rsatkichlarni aniqlash va tugatishni, turli kuzatuv shakllarining mosligini maqbullashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashni amalga oshiradi;

Narxlar statistikasi bo'yicha statistik instrumentariyni ishlab chiqish va takomillashtirish hamda sifatni boshqarish tizimini joriy etish jarayonlarida ishtirok etadi;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini Narxlar statistikasi bo'yicha axborotlar bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun Narxlar statistikasi yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar, diagrammalar, grafiklar va press-relizlar tayyorlaydi;

Boshqarma rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariiga asosan Narxlar statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Narxlar statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etadi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishi bo'yicha takliflar kiritadi;

statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan statistik klassifikatorlar va nomenklaturalarga o'zgartirishlar kiritish, xalqaro standart klassifikatorlar asosida ularning muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishini amalga oshirish ishlarida ishtirok etadi;

tuman (shahar) statistika organlariga va manfaatdor foydalanuvchilarga Narxlar statistikasiga taalluqli statistik klassifikatorlarni o'zlashtirishda metodik yordam va maslahat ko'rsatadi, ularni statistika amaliyotiga joriy etish ishlarida ishtirok etadi;

har oyda tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibiga amal qilinishi yuzasidan monitoring olib boradi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida, takliflar tayyorlaydi;

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

3-bob. Bo'limning huquqlari va javobgarligi

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Statistika boshqarmasi bo'linmalari va tuman (shahar) statistika bo'limlaridan o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan Narxlar statistikasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

Narxlar statistikasiga oid statistika kuzatuvi shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik

boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

statistika maqsadlarida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa yuridik shaxslardan (zarurat bo'lganda ularning vakolatxona va filiallaridan) belgilangan tartibda statistika hisobotini olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

Narxlар statistikasi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, yakka tartibdagи tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar faoliyatining statistika kuzatuvlarini olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

Bo'limga yuklangan vazifalar, funksiyalar va statistik ishlarni bajarish maqsadida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, tashkilotlardan belgilangan tartibda ma'lumot va tushuntirishlar olish;

Narxlар statistikasiga oid uslubiyot, statistik ishlar va rasmiy statistik ma'lumotlar yuzasidan axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

Narxlар statistikasi bo'yicha ma'lumot va ko'rsatkichlardan noo'rin foydalanish va ularga noto'g'ri sharh berish holatlarini ko'rib chiqish va ular yuzasidan tushuntirish berish;

qabul qilib olinayotgan statistik ma'lumotlarning to'liqliligi, ishonchhliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Statistika ishlari dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika boshqarmasining ish rejalari, Bo'lim ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha Statistika boshqarmasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

Narxlар statistikasi kuzatuvlarini tashkil etish va uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqarma va tuman (shahar) bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

9. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga amal qilish, ilg‘or xalqaro amaliyotga muvofiq, foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo‘lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, ijro intizomini ta’minlash.

4-bob. Bo‘limning tuzilmasi

10. Bo‘limning tuzilmasi o‘z ichiga Bo‘lim boshlig‘ini, shuningdek bo‘lim etakchi mutaxasisi

5-bob. Bo‘limning faoliyatini tashkil etish

11. Bo‘limning ishi O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dasturi, Statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qaroriga va u bilan tasdiqlangan “Statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi nizom, mazkur nizom, Statistika qo‘mitasi raisining buyruqlari va topshiriqlari hamda boshqarma boshlig‘ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, Statistika agentligining ish rejalar, Boshqarmaning ish rejalar va Bo‘lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo‘limning ish rejasi Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadigan Statistika boshqarmasining ish rejalar asosida shakllantiriladi va boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

Bo‘lim xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari bo‘limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda, Bo‘lim boshlig‘i tomonidan tayyorlanadi va Statistika boshqarmasi boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

12. Bo‘lim boshlig‘i:

Bo‘limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi va bo‘lim mutaxassislarining ishini tashkil qiladi, Bo‘limga yuklangan vazifa va funksiyalarining lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

tarkibiy bo‘linma to‘g‘risidagi nizomlarga muvofiq, aniq yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlaydi;

Bo‘limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq, lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini

oshirish, ularni rag‘batlantirish va jazolash choralar bo‘yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

Bo‘limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va boshqarma boshlig‘i o‘rbosariga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo‘lim xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Statistika boshqarmasining yig‘ilishlari va majlislarida, shuningdek, Statistika boshqarmasi rahbariyatining topshirig‘iga binoan, Bo‘lim tasarrufiga kiruvchi masalalar bo‘yicha idolararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Statistika boshqarmasi boshlig‘i va uning o‘rbosarlarining topshiriqlariga muvofiq, tahliliy va umumlashtiruvchi ma’lumotlarni tayyorlaydi, qo‘yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilishini ta’minlaydi;

Narxlар statistikasi bo‘yicha uslubiy hujjatlarni qo‘llash bo‘yicha bo‘lim mutaxassislariga maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatadi;

Statistika boshqarmasining va Bo‘limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq, Bo‘lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tahliliy va boshqa materiallarni o‘z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta’minlaydi;

Bo‘lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to‘ldirish choralarini ko‘radi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etilishini qat’iy nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo‘yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta’minlaydi.

Bo‘lim boshlig‘i vaqtinchalik bo‘lmagan taqdirda uning vazifasini – Bosh mutaxassis bajaradi.

13. Yetakchi mutaxassis:

funksional vazifalariga muvofiq, ma’lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o‘z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari va protokol topshiriqlaridan kelib

chiqadigan statistika organlari vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

Narxlar statistikasi bo'yicha (kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash) statistik instrumentariylarni shakllantirilishini, hamda byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlashda ishtirok etadi;

Narxlar statistikasi bo'yicha muhim indikatorlarni baholanishini va hisob-kitobini yuritilishini hamda barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlar tayyorlanishini ta'minlaydi;

Narxlar statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rvonomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv shakllarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingen ma'lumotlarning ishonchliliginini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

statistik kuzatuvlarning elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlar yuritilishini nazorat qiladi;

Narxlar statistikasi bo'yicha Statistika ishlari dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materialarni tayyorlaydi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.